

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH KITOBIDA FOLKLOR MATNLARINING YORITILISHI

Sayfiddinova Sitora Kamoliddin qizi

Zarmed universiteti III bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14953297>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 4- sinf o'qish kitobida keltirilgan o'zbek xalq og'zaki ijodiga oid bo'lgan "Boychechak" mavsum qo'shig'i va "Xo'p hayda" mehnat qo'shig'ining tahlili yoritiladi. Ushbu qo'shiqdagi g'oya unda aks ettirilgan ko'chma ma'nodagi so'zlar, ramziy ifodalar ochib beriladi.

Bolalarga folklor milliy boyligimizni o'rgatishda ushbu qo'shiqlar namuna sifatida o'rgatilishi inobatga olinib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'llanma sifatida tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: folklor, xalq og'zaki ijodi, mehnat qo'shiqlari, mavsum qo'shiqlari, "Xo'p hayda", "Boychechak", ramzlar, badiiy obrazlar, janrlar.

Abstract. The Uzbek people mentioned in the 4 th grade winter book in this article The analysis of "Boychechak" song 1 and "Goodbye" work song related to his oral creativity. The idea of this song, the figurative language and syumbolic expressions reflected in it, will be revealed. When teaching children about our folklore wealth, these songs are taught asexamples, and they were analyzed as a guide for the primary school curriculum.

Keywords: Folklore, art, labor songs, seasonal songs, "Xop hayda", "Boychechak", symbols, artistic images, genres.

Аннотация. В данной статье рассматривается анализ узбекской народной песни «Бойчечак» и рабочей песни «Хоп хайда», которые включены в учебник для 4 класса. Идея этой песни раскрывается через образные слова и символические выражения, отраженные в ней. Учитывая тот факт, что данные песни преподаются в качестве примеров при обучении детей нашему национальному фольклорному наследию, они были проанализированы в качестве пособия для учащихся начальной школы.

Ключевые слова: Фольклор, народное устное творчество, трудовые песни, сезонные песни, «Хоп хайда», «Бойчечак», символы, художественные образы, жанры.

Hech kimga sir emaski, xalq og'zaki ijodi namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e'tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan his-tuyg'ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon haqidagi o'y fikrlari o'z ifodasini topgan.

Vaholanki, boshlang'ich sinf bolalariga xalq og'izaki ijodi namunalarini o'rgatish, o'tmishi va bizgacha yetib kelgan tarixini bola ongiga singdirish bolaning dunyoqarashi va vatanga bo'lgan mehrini yanada oshiradi. O'z xalqining tarixi va urf-odatlarini bilmasdan, o'quvchini o'zi tug'ilib o'sgan va yashayotgan yurtning xalq madaniyati bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, Vatanga munosib fuqaroni tarbiyalab bo'lmaydi. Yangi zamon fuqarosini shakllantirish jarayonini Vatanga muhabbat tarbiyasidan boshlash kerak. Barchamizga ayonki, bolalar tasavvurini, fantaziyasini o'stirishda xalq og'zaki ijodi namunalari alohida o'rin tutadi. Xalq madaniyatini saqlash va davom ettirishga yordam beradi. Yangi ijodiy asarlarga ilhom manbai bo'ladi va milliy o'ziga xoslik va qadriyatlarni targ'ib qiladi. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodining (folklor) o'qitilishi bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Folklorizm ta'lim jarayonida xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, qo'shiqlar va dostonlar orqali qo'llaniladi.

Folklorizmning boshlang'ich sinflardagi ahamiyati shundaki, tarbiya vositasi sifatida bolalar ezgulik va yovuzlikni farqlashni o'rganadi. Xalq ertaklari va maqollar axloqiy fazilatlarini shakllantiradi (halollik, do'stlik, mehnatsevarlik kabi). Bolalar og'zaki va yozma nutqni rivojlantiradi. Doston va latifalar orqali jasorat, vatanparvarlik va adolat tushunchalari o'rgatiladi. So'z boyligini oshiradi, o'z fikrini ifodalashni o'rgatadi. Maqollar va topishmoqlar mantiqiy fikrlashni shakllantiradi. Xalq ertaklari va qo'shiqlari bolalarning darsga qiziqishini oshiradi. O'yinlar va sahna ko'rinishlari orqali interfaol ta'lim amalga oshiriladi.

Folklor asosida tashkil etilgan rol o'yinlar bolalarning ijodkorligini rivojlantiradi. O'zbek xalqining qadriyatlari va an'analarini o'rganish imkoniyati yaratadi. Bolalar milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'ladilar. Folklor orqali boshqa millatlarning madaniyatiga hurmat hissi shakllanadi. Jumladan, har bir bola yoshligidan ertak eshitib, dunyoni anglaydi. Har bir aytiladigan ertak bolalarda yangicha taassurot qoldiradi. Bolalar ertak qahramonlariga o'xshashga harakat qiladilar, sehrli narsalarga ega bo'lishni istaydilar yoki o'zlari sehgarga aylanib qolishni va qahramon singari behisob kuch-qudratga qodir bo'lishni orzu qiladilar.

Bunga yaqqol namuna sifatida 4-sinf o'qish kitobida xalq og'zaki ijodi, ya'ni folklor uchun alohida o'rin ajratilgan. Bunda xalq og'zak ijodi namunasidan bolalar qo'shig'i hisoblanmish "Boychechak" qo'shig'i keltiriladi. Bu mavsumiy qo'shiq bo'lib, aynan bahor faslida ijro etiladi.

Boychechagim boylandi,

Qazon to'la ayronidir.

Ayroningdan bermasang,

Qozon- tovog'ing vayronidir.

*Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.*

Bahorda bolalar dala-dashtlarga chiqib, qir adirlardan boychechakni ko'rishadi va terib kelishib, uylariga uyma-uy kezib qariyalarga, kekxa kishilarga boychechak unib chiqqanligini ma'lum qilishadi. Qariyalar boychechakni qo'llariga olib, ko'zlariga surtib "Omonlig'-u somonlig' hech ko'rmaylik yomonlik",- deya yangi yilga, ya'ni yangi kunga - Navro'zga yetib kelganlari uchun shukronalik qilishadi.

Qo'shiqning tartibi to'rt qator asosiy qism va ikki qator takrorlanuvchi naqorot qismidan iborat. Naqorot qismi har ikkala banddan keyin ham

*"Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak"*

tarzda takroriy tarzda aytiladi. Bu qo'shiqni bolalar qarsak chalgan holda ijro qilishadi. Boychechak bu yerda yoshlikning, jo'shqin hayotning, unib o'sib kelayotgan yosh bolaning obrazi bo'lishi ham mumkun.

Xalqning donoligini shundan bilish mumkunki:

*Boychechakni tutdilar,
Tut yog'ochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar,
Baxmal bilan yopdilar.*

*Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.*

Bandini tahlil qiladigan bo'lsak, bu yerda tut yog'och obrazi ishtirok etgan bandidan ko'rinish turibdiki, bu beshikning yasalihi bilan bog'liq ajoyib tasvirdir. Avvaliga yog'ochni, daraxtni kesishadi, uni osib, quritishadi. Keyin qilich bilan chopib, randalab, ustalar uni beshik holida keltirishadi. So'ngra baxmal bilan yopib, hayotning umidi, kelajagi bo'lgan farzandlarimizni unga yaxshi niyatlar bilan yotqizadilar. Tut yog'och deyilishiga sabab, chunki tut yog'och aynan juda serhosil, meva ko'p tugadigan daraxt hisoblanadi. Demak, dono xalqimiz yangi hayotga qadam tashlayotgan chaqaloqlar sonining ko'p bo'lishini, dunyo bolalarga to'lishini yaxshi niyat qilishgan.

*Boychechagim boylandi,
Ko'chama-ko'cha aylandi.
Boychechagim ko'k somsa
Cho'ntaklarga joylandi.*

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Bahor elchisi haqidagi bu qo'shiq aslida yasharish, yoshlikni tarannum etuvchi mavsumiy qo'shiqdir.

Tili sodda, bolalarga xos. Bolalarning biri bu qo'shiqning to'rtligini kuylaydi, qolganlari esa naqarotini jo'r bo'lib kuylaydilar. Bu qo'shiqda ko'klamga xos tabiat hodisalari hamda xalqimizning an'analari zavq bilan tarannum etilgan. Ko'rib turganimizdek, bolalar hayotida qo'shiqlarning roli katta ahamiyat kasb etadi. Xalq qo'shiqlari har bir xalqning iqlimiga, urf-odatiga, marosimlariga mos tarzda ijro etilgan. Bu xildagi qo'shiqlar o'tmishimizni, uzoq ajdodlarimizning turmush tarzini, dunyoqarashini hamda orzu-istaklarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

4-sinf o'qish kitobining 98- betida yana milliy folklorimizga oid yana bir matn berilgan, bu "Xo'p hayda" mehnat qo'shig'idir. Odatda, mehnat qo'shiqlari xalqimizning dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchiligi bilan bog'liq qo'shiqlar bo'ladi va ular mehnat jarayonini yengillashtirish, kayfiyatni ko'tarish, mehnat qilish jarayoni bilan bog'liq bilimlarni ish jarayonida aks ettiradi.

Xo'p hayda-yo, ho'p hayda ,

Qalqon qulog'im hayda,

Temir tuyog'im hayda

Xirmonni qilgin mayda.

"Xo'p hayda qo'shig'i ham shulardan biri bo'lib, aynan mehnat qo'shiqlarining dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar sarasiga kiradi.

Bunda , odatda, somonni bug'doydan ajratish jarayonida ijro qilinadigan qo'shiq hisoblanadi. Bunda asosiy mehnatni ho'kiz, yoki eshaklar bajaradi. Xirmon egasi jonivorini ovutish maqsadida uni yaxshi so'zlar bilan erkalatib, uni ruhlantiradi. Og'ir mehnatdagi charchog'ini yozdirishga harakat qiladi, masalan, she'r matnida jonivorni "qalqon qulog'im", "temir tuyog'im" kabi erkalash so'zlarini keltiradi. Temir tuyog' deyilishiga sabab, jonivir tuyog'i qanchalik qattiq bo'lsa, shuncha ishga va mehnatga chidamliligi aks ettiriladi. Bunda, odatda, hayvonlarning tuyog'i ostiga taqalar qoqishadi va bular orqali xirmon chog'i somonni tezroq ajratish maqsadi bo'ladi.

Ostingdan bosgan donni,

Tuyog'ing qilsin mayda.

Sen po'stidan judo qil,

Somoni senga foyda.

Jonivorga uqtirish sabablardan yana biri, qachonki biz somonni boshoqdan ajratsak, senga ham somonini xashak, ya'ni ozuqa sifatida beramiz, ma'nosini uqish mumkin.

Chuv, hey jonivorim, hayda,

Hirmonni qilgin mayda.

Ishni tomom qilmasang,

Joningga tinim qayda.

Bunda ko'pincha xirmon egasi- don yanchuvchining orzu - istaklari, iztiroblari qayg'ulari g'amlari ham aks etgan, masalan, bu xohishni "Xo'p hayda" qo'shig'ining so'nggi qatorida

"Donni yig'ib olmasak,

Bizlarga tinim qayda"

shaklida ifodalaydi. Chunki ro'zg'orda tinim, jonida orom, bo'lishi uchun xirmon egasi donni po'stidan ajratib olishi kerak bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, mehnat qo'shiqlarining har birida purhikmat so'zlar aks ettirilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qo'shiqlar o'quvchilarning tarbiyasiga, dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi, milliy urf-odatlarini sevishga, qadriyatlarni ardoqlashga, aqliy rivojlanishiga, nutqiy faoliyatiga beqiyos yordam beradi. O'zbek xalq qo'shiqlari juda qadimiy tarixga ega bo'lib, ular dastlab mehnat jarayonida vujudga kelgan. Xalq qo'shiqlarida xalqimizning orzu-umidlari, ichki kechinmalari, zavq-shavqi, mehnat faoliyatlari, quvonchlari-yu iztiroblari mujassamlashgan. Xalq qo'shiqlari barchamizning ko'nglimizga birdek yoqadi hamda sevib o'rganishimiz, ijro qilishimiz uchun munosib durdonalardir.

REFERENCES

1. S.Matjonov, A. Shojalilov, X. G'ulomova, Sh. Sariyev, Z.Dolimov. 4-sinf
2. darslik. 6-nashr. Toshkent-, "Yangiyo'l Poligraph Service". 2020.B-
3. Madayev O. "O'zbek xalq og'zaki ijodi". O'quv qo'llanma. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
4. Jo'rayev M. "Folklorshunoslik asoslari". O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008.
5. Jo'rayev M., Eshonqulov J. "Folklorshunoslikka kirish". O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017.